

## **INNOVATION PEDAGOGIK TECHNOLOGIES AND THE NEEDS OF STUDENTS TO REVISE SCIENCE IN THE PROCESS OF EDUCATION**

*Latipov Abbos Sharipovich.*

*“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Geodeziya  
va geoinformatika” ta’lim yo’nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** Maqolada yurtimizda ta’limga oid ko‘plab islohotlar olib borilayotganligi va buni samaradorligi o‘laroq ta’lim sifatining ortayotganligi, va ta’limning barcha bosqichida dolzarb masala shaxsning intellektual salohiyatini takomillashtirish mavzusi yotgani to‘g‘risida bayon qilingan. Muallif shuningdek “Intellektual ko‘nikmalar” tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tgan va o‘z muloxazalarini taqdim etgan.

**Kalit so‘zlar:** kadrlar tayyorlash, ta’lim, pedagog, intellektual, ko‘nikma, saviya, sifat, texnologiya, uzluksiz.

O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib, halqaro maydonda o‘zining munosib o‘rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta’minalash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy sohalarda chuqr islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog‘liqdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta’lim jarayonidagi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo‘llash oliy ta’lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda

masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iboratdir. Bundan tashqari o‘quv-tarbiyaviy jarayoniga samarali innovatsion pedagogik texnologiyalarini izlashni va tatbiq qilishni faollashtirish kerak [1]. Uzluksiz ta’lim tizimida har tomonlama yetuk, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash, o‘quvchini uzluksiz rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o‘zaro aloqadoligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo‘naltirilganligini ta’minalash hamda ularni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlashni taqozo etadi. Ta’lim jarayonida ta’lim sifatini oshirish, qo‘yilgan maqsadga olib boruvchi jarayoni rejalashtirish, eng muhim kutilgan natijani ta’minalashda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p karra takrorlanmoqda. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr talabidir. Bu texnologiyalarni qo‘llagan xolda o‘quvchilarning intellektual faoliyatinni rivojlantirish nazarda tutiladi. Zamonaviy ta’limning maqsadi shundan iboratki, o‘quvchilarga nafaqat u yoki bu bilimlar yig‘indisini berish, balki ularni ilmiy va ixtiyoriy boshqa axborotni mustaqil o‘zlashtira olishga o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari o‘zining o‘quv-biluv xarakatlarini ratsional qurish uchun ko‘nikma va malakalarga o‘rgatish, ya’ni ularning muvaffaqiyatli intellektual rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish kerak. “Albatta barcha bolalar boshlang‘ich intellektual imkoniyatlari bilan bir-biridan farq qiladi [2]. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi sotsial-madaniy va iqtisodiy sharoitlarda bu farqlar yanada kattalashadi. Barcha bolalar har xil, ammo ular to‘laqonli intellektual rivojlanish oldidagi xaq-huquqlari nuqtai nazaridan tengdirlar.” “Umumiy rejada ta’limning asosiy maqsadi-o‘quvchini rivojlantirish..., rivojlanish deb, odatda aqliy rivojlanish nazarda tutiladi. Pedagogika va psixologiyaning umumqabul qilingan fikriga ko‘ra aqliy rivojlanish bilimlar, ko‘nikmalar va aqliy xarakatlar to‘plami bilan xarakterlanadi. «Aqliy rivojlanish: bilimlar, ko‘nikmalar yig‘indisining darajasi va ularni o‘zlashtirish jarayonida shakllangan aqliy xarakatlar; ma’lum bir xajmdagi yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini ta’minlovchi fikrlash jarayonida ularni mustaqil qo‘llay olish”. Intellektual ko‘nikmalar - ta’lim faoliyatida axborotlarni olish, qayta ishslash va

qo'llash bo'yicha xarakat va operatsiyalarning yig'indisidir. Bu ko'nikmalar maxsus ko'nikmalar va ratsional o'quv faoliyat ko'nikmalarini egallash jarayonida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi [3]. Aqliy rivojlanishning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, "nafaqat bilimlar fondini boyitish, balki yaxshi ishlab chiqilgan va mustahkamlangan aqliy operatsiyalar, usullarni egallashdan iborat. Bu operatsiyalarni intellektual ko'nikmalarga kiritish mumkin. Masalan, taqqoslash, analiz, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, kllasifikatsiyalash." "Intellektual ko'nikma" tushunchasini haqida gapirilganda "fikrlash" tushunchasi bilan bir qatorda "intellekt" tushunchasi an'anaviy tarzda ishlatiladi. Agar fikrlash –bu yangi bilimlarni olish va biron bir narsani yaratish uchun mo'ljallangan masala yechish jarayoni bo'lsa, intellekt esa- bilishning barcha jarayonlariga zarur bo'lgan, shaxsning umumiyligi qobiliyatlarining xarakteristikasidir, ya'ni nafaqat fikrlash, balki tasavvur, diqqat, nutq uchun ham o'rinnlidir. Intellektual ko'nikmalar fikrlash (aqliy) foliyat asosida rivojlanadi. O'z navbatida fikrlash (aqliy) faoliyat fikrlash operatsiyalariga tayanadi [2]. Asosiy fikrlash operatsiyalariga analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, klassifikatsiya, muhimini ajratish ko'nikmasi, analogiya o'tkazish, aqlda hisoblash, fazoda tasavvur qilishlarlar kiradi. Taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalarni shakllanganligi haqida o'quvchilarning muhimini ajratib olish ko'nikmasi qay darajada rivojlanganligidan bilish mumkin. Bu ko'nikma integralli bo'lib hisoblanadi, chunki u fikrlashning boshqa jarayon va xossalariiga keng tayanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», 31-61 b. T.-“Sharq”, 1997y. ,-64 b.
2. Kuziev Sh. A. - Progress in language teaching via picture stories - Voprosy nauki i obrazovaniya 2018, 2 (14).
3. Kuziev Sh. A. - Rol auditorii i konteksta v rechi - Nauka i obrazovanie: soxranyaya proshloe, sozdayom budušče, 2017. Rossiya.
4. Kuziev Sh.A. Sotsiolingvisticheskaya kompetensiya: iz filologii v pedagogiku guliston davlat universiteti axborotnomasi 2021. 3 tom.
5. Sh. Kuziev, S. Raxmonova - Distansionnoe obuchenie i texnologiya - budušče natsionalnogo obrazovaniya. “O'zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal, №1/2018.